

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Rossiyaga amaliy tashrifi yakunlandi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-dekabr kuni Sankt-Peterburg shahrida Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin tashabbusi bilan o'tkazilgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar rahbarlarining norasmiy sammitida ishtirok etdi.

Yetakchilar joriy yilgi hamkorlik yakunlarini sarhisob qilib, 2023-yil uchun ustuvor vazifalarni muhokama qildilar. Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Bugun, 27-dekabr kuni Prezidentimiz MDH davlatlari rahbarlari bilan birgalikda Sankt-Peterburgdagi Davlat rus muzeyiga tashrif buyurdi. Bu yerda mehmonlar muzey to'plamidagi eksponatlar va san'at asarlari bilan tanishdi hamda norasmiy uchrashuv o'tkazdi.

Shu bilan davlatimiz rahbarining amaliy tashrifi yakunlandi, u "Pulkovo" xalqaro aeroportidan Toshkentga jo'nab ketdi.

Manba